



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Шоҳистахон Улжаева</b> ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
<b>2. Jummagul Abduraxmanova</b> TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
<b>3. Гулнара Жолдасбаева</b> ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
<b>4. Dilshod Abdullayev</b> 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
<b>5. Фарзия Ансорова</b> ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎЙ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
<b>6. Faxriddin Yormatov</b> O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
<b>7. Шаходат Зайниддинова</b> ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
<b>8. Muborak Matyakubova</b> XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
<b>9. Diloram Ziyayeva</b> IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
<b>10. Farxod Ziyayev</b> XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
<b>11. Shaxodat Ruzmatova</b> XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY TUZILISHI.....	65
<b>12. Fotima Shirinova</b> TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71



**Shaxodat Abdukaхharovna Ruzmatova,**  
Qo‘qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va  
tillar fakulteti Tarix kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD  
e-mail: ruzmatovashaxodat@gmail.com

## **XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO‘QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIY TUZILISHI**

**For citation:** Shakhodat A. Ruzmatova. SOCIAL STRUCTURE OF THE POPULATION OF THE KOKAND KHANATE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548885>

### **ANNOTASTIYA**

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davlati jamiyati turli ijtimoiy tabaqalardan tashkil topganligi, xususan xon avlodlari, din peshvolari, diniy sulola vakillari, savdogarlar, hunarmandlar, harbiylar va boshqa tabaqa vakillari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, maqomga ega kishilarning jamiyatda tutgan o‘rni, unga berilgan imtiyozlar va ularning ahamiyati borasida ham fikrlar bildirilgan. Aholi orasida ayniqsa savdogarlar, hunarmandlar, ularning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilovchi hashamdor uylari, kiyimlari, davlat mutasaddilari tomonidan berilgan imtiyozlarga alohida urg‘u berilgan. Xonlikdagi markaziy hokimiyat uchun kurash jamiyatni turli qatlamlarga bo‘linib ketishiga olib kelganligi, buning ustiga o‘troq va ko‘chmanchilar turmush tarzining o‘zaro raqobati va qarama – qarshiligi mamlakatni zaiflashib ketishiga sabab bo‘lganligi xususida ham fikrlar yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** aholi stratalari, shajara, sayyidlar, xo‘jalar, so‘fiylar, zodagon, qora suyak, usta, shogird, savdogar, ulamo, hunarmand.

---

**Шаходат Абдукаҳхаровна Рузматова,**  
старший преподаватель кафедры истории  
факультета гуманитарных наук и языков  
Кокандского государственного университета,  
кандидат исторических наук,  
e-mail: [ruzmatovashaxodat@gmail.com](mailto:ruzmatovashaxodat@gmail.com)

## **СОЦИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА НАСЕЛЕНИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье говорится о том, что общество государства Кокандского ханства составляли разные социальные классы, в частности, потомки ханов, религиозные деятели, представители религиозных династий, купцы, ремесленники, воины и представители других сословий. Кроме того, были высказаны мнения о роли людей, имеющих статус в обществе, предоставляемых им привилегиях и их значимости. Среди населения особое место занимали

купцы и ремесленники, их роскошные жилища, одежда, привилегии, дарованные государственными чиновниками, определяли их положение в обществе. Сообщается также, что борьба за центральную власть в ханстве привела к расколу общества на различные слои, а соперничество и противостояние оседлого и кочевнического образа жизни привели к ослаблению страны.

**Ключевые слова:** слои населения, генеалогия, сейиды, ходжи, суфии, знатные, черная кость, мастер, ученик, купец, учёный, ремесленник.

**Shakhodat A. Ruzmatova,**

Senior Lecturer, Department of History,  
Faculty of Humanities and Languages,  
Kokand State University,  
PhD in History,  
email: ruzmatovashakhodat@gmail.com

## SOCIAL STRUCTURE OF THE POPULATION OF THE KOKAND KHANATE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY

### ABSTRACT

This article states that the society of the state of the Kokan Khanate consists of different social classes, in particular, the descendants of the khans, religious figures, representatives of religious dynasties, merchants, artisans, warriors and representatives of other classes. In addition, opinions were expressed about the role of people with status in society, the privileges granted to them and their significance. Among the population, merchants and artisans occupied a special place; their luxurious homes, clothing, and privileges granted by government officials determined their position in society. It is also reported that the struggle for central power in the khanate led to a split in society into different strata, and the rivalry and confrontation between the sedentary and nomadic lifestyles led to the weakening of the country.

**Index Terms:** strata of the population, genealogy, sayyids, khojas, sufis, nobles, black bone, master, student, merchant, scholar, artisan.

### 1. Mavzuning dolzarbligi:

Dunyoning qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida aholi soni, ularning turli davrlarda ko'payib yoki kamayib borishi, geografik taqsimlanishi, tarkibi, stratalari kabi masalalar chuqur o'rganilmoqda. Hozirgi davrda muayyan bir hudud, mamlakat, dunyo aholisining soni, yoshi, ijtimoiy tarkibi kabi demografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish ko'plab davlatlar siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan, demografik jarayonlarga doir ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, tarixiy davrlar kesimida tadqiq etish muhim o'rin tutmoqda.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyo tarixida muhim o'zgarishlar davri sifatida qayd etiladi. Bu davrda Qo'qon xonligi O'rta Osiyoning eng yirik feodal davlatlaridan biri sifatida, ichki inqirozlar, tashqi bosimlar va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida o'zining oxirgi bosqichini boshdan kechiradi. Qo'qon xonligi aholisining ijtimoiy tuzilishi bu davrning murakkabligini aks ettiradi: etnik xilma-xillik, sinfiy bo'linishlar va iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi xonlikning barqarorligiga ta'sir etgan. Ushbu maqola XIX asrning ikkinchi yarmida (taxminan 1850–1876-yillar) Qo'qon xonligi aholisining ijtimoiy tuzilishini ilmiy uslubda tahlil etishga bag'ishlanadi. Maqola manbalari asosan rus va o'zbek tarixchilarining asarlariga, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarga asoslanadi. Qo'qon xonligi XVIII asrning birinchi yarmida shakllangan bo'lib, XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida o'zining eng gullagan davrini boshdan kechirgan. Ammo 1850-yillarga kelib, xonlik ichki nizolar, soliq og'irligi va Rossiya imperiyasining bosimi ostida inqirozga yuz tutgan. Aholining ijtimoiy tuzilishi feodal munosabatlar

asosida shakllangan bo‘lib, unda hokimiyat sinfi, diniy qatlam, savdogarlar, dehqonlar va chorvadorlar asosiy o‘rin egallagan.

Qo‘qon xonligi aholisi etnik jihatdan xilma-xil bo‘lib, o‘zbeklar asosiy ko‘pchilikni tashkil etgan (taxminan 50–60 foiz). Ular asosan Farg‘ona vodiysida yashagan va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Tojiklar (20–25 foiz) g‘arbiy va shimoliy qismlarda, ayniqsa, Xo‘jand va O‘ratepa atrofida ko‘p bo‘lgan. Ular shahar madaniyati va savdosida faol ishtirok etgan. Qirg‘izlar (15–20 foiz) janubi-sharqiy tog‘li hududlarda chorvachilik bilan shug‘ullangan, qozoqlar va qipchoqlar shimoliy dashtlarda ko‘chmanchi hayot kechirgan. Bundan tashqari, XIX asrning ikkinchi yarmida yahudiylar (asosan savdogarlar) va arab-turkman qabilalari ham ko‘chib kelgan.

Etnik tarkib ijtimoiy tuzilishga ta‘sir etgan: o‘troq kun kechiruvchi o‘zbek va tojik feodal ierarxiyada yuqori o‘rin egallagan, ko‘chmanchilar (qirg‘iz, qozoq) esa mustaqilroq bo‘lgan, ammo soliq va harbiy majburiyatlar ularni xonlik markaziga bog‘lagan. Rus manbalarida qayd etilishicha, etnik nizolar kam bo‘lgan, ammo resurslar taqsimoti (suv, yer) sababli mahalliy ziddiyatlar yuzaga kelgan. 1876-yilda xonlikning ruslar tomonidan bosib olinishi etnik tarkibga ta‘sir etdi. Yevropa millatiga mansub aholi hududga ko‘plab ko‘chib kela boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo feodal davlatlarining eng yirigi sifatida ichki inqirozlar, etnik xilma-xillik va Rossiya imperiyasining ekspansiyasi ta‘sirida o‘zining oxirgi bosqichini boshdan kechirdi. Ushbu davr aholisining ijtimoiy tuzilishi – hokimiyat sinfi, ulamo, savdogar-hunarmandlar, dehqon va chorvadorlar qatlamlari jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy dinamikasini aks ettiradi. Mavzuning **dolzarbli** quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Tarixiy uzviylikni tushunishda:** Qo‘qon xonligining ijtimoiy tuzilishi O‘zbekistonning milliy davlatchiligi shakllanishidagi muhim bosqich bo‘lib, mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglashda muhim manba hisoblanadi.

2. **Ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalarida:** Dehqonlarning og‘ir soliq yuki, ichki nizolar, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlanish, migratsiya va resurs taqsimoti muammolarini tushunishga yordam beradi.

3. **Kolonializm va mustamlakachilik oqibatlarini o‘rganishda:** Rossiya bosqini natijasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar postkolonial tadqiqotlar uchun muhim misol bo‘lib, bugungi kunda geosiyosiy ta‘sir va madaniy assimilyatsiya masalalarini tahlil qilishda qo‘llaniladi.

4. **Etnik hamjihatlik va ko‘p millatli jamiyat modelida:** O‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq va boshqa millatlarning o‘zaro munosabati bugungi O‘zbekistondagi millatlararo totuvlik siyosatini tarixiy asoslashda muhimdir.

5. **Ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishda:** Rus va sovet davri manbalarida ko‘pincha siyosiy voqealar yoritilgan bo‘lsa, ijtimoiy tuzilishning chuqur tahlili kam uchraydi. Zamonaviy tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirib, arxiv, og‘zaki tarix va demografik ma‘lumotlar orqali yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Ushbu mavzu nafaqat o‘tmishni tushunish, balki hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va kelajak uchun saboq olish nuqtai nazaridan yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

## 2. Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqotni tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida ob'ektivlik, tarixiylik, xolislik, ilmiylik va zamonaviylik tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshirishga harakat qilingan. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy tahlil, tanqidiy tahlil usullaridan foydalanilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida qo‘qon xonligi aholisining ijtimoiy tuzilishi masalalari Г.А.Агзамова, Н. Турсунов, Л.И. Ремпель, Н.В. Ханыков, А.А.Семенов, О.А. Соловьева, О.А. Сухарева kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

## 3. Tadqiqot natijalari:

XIX asrning II yarmida xonlik sinfiy va ijtimoiy tabaqalarga bo‘lingan jamiyatdan tashkil topgan edi. Har bir tabaqa davlat va jamiyatdagi siyosiy maqomi, mulkka egaligi, hukmdor sulola yoki tarixan imtiyozli bo‘lgan, sayyid yo xo‘ja ekani, o‘tgan hukmdorlar shajarasidan ekani, o‘zining bilim va malakasi bilan qandaydir imtiyozlarga ega bo‘lgani, ilm va islom ulamolari orasidan bo‘lgani, zodagon yoki qora suyak ekani, o‘troq yoki ko‘chmanchilikni boshdan kechirayotgani, hunarmandlar ahliga aloqasi, savdogar ahlidan bo‘lishi bilan jamiyatdagi

ierarxiyada yuqori yoki pastroq darajaga ega bo'lgani aniq. Bularning ba'zilar alohida ijtimoiy guruh – stratalarni tashkil etgan.

Xonlik aholisining ijtimoiy stratalari shahar aholisi va qishloqda yashayotgan aholiga hamda o'troq va ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi aholiga ajralgan. Shulardan shahardagi aholi orasida savdogarlar va hunarmandlar asosiy ijtimoiy guruhlarni tashkil qilgan.

O'rta Osiyodagi hunarmandchilik ustaxonalari va ularning o'rta asrlar turli davrlarida o'zgarishini o'rganish nafaqat xalqlarning ijtimoiy tarixini yoritish, balki O'rta Osiyo shaharlarining ichki hayotini tushunish uchun katta ahamiyatga ega [1: 50-b.]. O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida bo'lgani kabi Xo'jandda ham bir xil mutaxassislikdagi hunarmandlarni birlashtirgan tashkilotlar "kasaba" (kasb-u kor egalari) deb atalgan. Tadqiqotchilar bu atamani "tsex" deb tarjima qiladilar. O'rganilayotgan davrda, jumladan xonlikning eng nufuzli viloyatlarining markazi bo'lgan Xo'janddagi hunarmandchilik ustaxonalari, avvalgidek, yollanma hunarmand-xalifani, mustaqil hunarmand-ustani, yirik ustaxona egasi – ustakorni va nihoyat kasaba ierarxiyasining eng quyi bo'g'ini bo'lgan shogirdlarni birlashtirgan [2: 110, 112-b.].

Savdo ahli va savdogarlar ham alohida tabaqa sifatida xonlik ijtimoiy hayoti va xo'jaligida muhim o'rin egallagan.

Tashqi savdoda va xalqaro munosabatlarni belgilashda hashamdor uy – joy va kiyim – kechak siyosiy kuch – qudrat, yuqori strata ramzi sifatida muhim rol o'ynagan. Hatto, kiyimga taqilgan yoki tikilgan turli ramz va nishonlar ham savdogarlarning maqomini ko'rsatgan. Masalan, xondan olingan zarbof to'n, salla, ot va uning egar – jabdug'i, yorliq hamda boshqa hadyalar ham savdogarlarga yoki savdo inshootlarida xizmat qiladiganlarga alohida imtiyoz bergan [3: 81-b.].

Savdogarlar xalqaro savdo karvonlarini tuzishda xondan maxsus yorliqlar olgan. Bu yorliqlar 3 turda bo'lgan: 1. Xonning muhri bosilgan yorliq; 2. Xon va otaliq muhri bosilgan yorliq (otaliq muhri orqa tomonda bo'lgan – muallif); 3. Xon va inoq muhri bosilgan yorliq (inoq muhri orqada bo'lgan). Ikkinchi va uchinchi turdagi yorliqlar past mansab egalari berilgan bo'lsa, xonning muhri bosilgan yorliq, asosan, xonlikdagi yuqori lavozimdagi kishilarga berilgan. Yorliqni uch kungacha sallada taqib yurish odat bo'lgan [4: 84-b.]. Bunday yorliq egalari yo'llarda, bojxona va chegaralarda mazkur yorliqlarni ko'rsatganlarida xonning bu marhamatiga barcha o'z ehtiromini ko'rsatishi lozim edi. Qo'qon, Buxoro va Xivaning boy savdogarlari Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy hududlarida ham o'sha hududning ijtimoiy ierarxiyasiga kirishga intilganlar [5]. Bu yerda biz, albatta, xon tomonidan berilgan yorliqning ahamiyati, qudrati, mamlakat hududida savdoning rivojlanishi va ijtimoiy tabaqalarga alohida e'tiborni kuzatishimiz mumkin.

Savdogarlarning darajalarini belgilab beruvchi yana bir vosita bu – bosh kiyim bo'lgan. Mansab va amallar hamda ijtimoiy ierarxiya bosh kiyim tanlashda barcha tan olgan an'analarga rioya etishni talab qilardi. Masalan: oddiy aholi va mayda savdogarlar hind dokasining misqoliy turidan salla o'raganlar. Ushbu sallalar ham o'rash uslubi va maxsus naqshlari bilan bir-biridan farq qilgan. Oq rangli dokadan madrasa toliblari, yashil va ko'k chiziqli matodan o'ralgan sallalarni yosh mudarrislar va mayda savdogarlar kiygan [6: 42-b.]. O'rta va yirik savdogarlar (savdogari kalon – *dissertant*) salla oxirini do'ppi va salla o'rtasiga qistirib, faqat ibodat vaqtida tushirganlar.

Xalat, to'n va ulardan tayyorlangan matolar ham daraja va hokimiyat ramziy unsurlari qatoridan joy olgan. Mato, uning rangi, naqshinigorlarining ba'zi turlarini oddiy aholi, jumladan, savdo yo'nalishida xizmat qilayotganlar kiyishlari mumkin bo'lmagan. Shohi matodan tayyorlangan kiyimlarni faqat xon oilasi kiyishi mumkin bo'lgan [7: 29-b.].

Aslida Qo'qon xonligida ijtimoiy guruhlarning shakllanishida davlat amaldorlari, harbiylarning turli unvondagilari, diniy va qozixona ishchilari, mahalliy hokimiyat vakillari ham faol qatnashgan.

Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy – ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo'lingan [8: 6-21-b.]. Bu amal va unvonlarning egalari ham o'z daromadlari, davlat ichki va tashqi hamda harbiy jarayonlariga ta'siri, olingan haq – huquq va imtiyozlari yuzasidan jamiyatda alohida maqomga ega bo'lgan.

Asrlar davomida shakllangan harbiy tizim o'zining asosiy xususiyatlarini XVIII – XIX asrning birinchi yarmida ham saqlab qolgan. Buni Qo'qon xonligida tadqiqotga tortilgan davr chegarasida mavjud bo'lgan harbiy mansablar va ular egalari vazifalarini tahlil etish orqali ham kuzatish mumkin. Garchi, Qo'qon xonligidan oldingi davrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, Amir Temur (1370 – 1405-y.) davlatida mavjud bo'lgan harbiy boshqaruv sohasidagi maxsus devon bo'lmagan bo'lsa-da, turli toifadagi harbiy amaldorlar bo'lib, davlat tomonidan ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar aniq tizimga solingan edi. Tarixiy manbalar ma'lumotlariga asoslangan holda Qo'qon xonligida uch toifadagi – oliy (mingboshi, amirlashkar, qushbegi, botirboshi, voliy (noib), qal'abon, qo'rboshi, yovar, to'pchiboshi, to'qsabo, ponsodboshi va b.), o'rta (yuzboshi, ellikboshi, dahboshi, qorovulbegi), quyi (askar, sarboz, navkar, mergan, mahram, botur, jazoilchi, to'pchi, qo'rchi, qorovul) darajadagi harbiy mansab va unvonlar borligini kuzatish mumkin [9: 136-b.].

Bu mansab va unvonlarga da'vogarlik qiluvchi shaxslar xon tomonidan tayinlangan. Qo'qon xonligida ma'muriy va harbiy mansablarning birinchi darajasidan to yettinchi darajasigacha, asosan o'zbeklar vakillaridan tayinlangan [10: 43-b.]. Lekin yozma manbalardagi ma'lumotlarda, xonlikdagi eng yuqori harbiy lavozim hisoblangan mingboshilikka XIX asrning 50-60-yillarida tojik Shodi, qirg'iz Aliquli, Toshkent hokimi etib esa, kelib chiqishi qul bo'lgan Lashkarbeklarbegi tayinlangan edi [11: 6-b.].

Ma'lumki, saroyda xizmat qiladiganlarning aksariyati xon oilasi, uning qarindosh – urug'lari, yoki saroyda xizmat qiladiganlarga yaqin odamlar jalb qilingan. Bular ham darbor/dargoh xodimlari deya jamiyatni yuqori stratasini tashkil qilgan. Saroyda xizmatda bo'lganlar qatorida otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, inoq, eshikog'asi yoki chehraog'asi, parvonachi, dodxoh, dasturxonchi, saroy qorovulbegisi, tunqator, oftobachi, sharbatdor, hidoyatchi, shig'ovul, sarkor, qushbegi (mirishkor), salomog'asi, kitobdor, risolachi, jam'og'a, jarchi, chopquchi, shotir, udaychi va yana o'nlab amaldor va unvonlar egalari bo'lgan [8: 6-21-b.].

V.Zernovning quyidagi qaydlari bu joyda juda ham muvofiq keladi: “Xon – davlatdagi eng oliy shaxs. Uning atrofida odatda bir necha yaqin kishilaridan emas, balki butun bir qabiladan yoki urug'dan iborat yig'in tuzilgan. Ular davlatga xizmat qilish orqali yoki boshqa yo'llar bilan o'z ta'sir kuchlariga ega bo'lganlar. Bunday tuzilmalarning borligi juda katta zarar keltirgan. Hukumat tepasiga kelgan urug' hokimiyatni o'z qo'liga olgan va urug'doshlari o'rtasida taqsimlagan. Urug' oqsoqollari xon yonida qolib asosiy davlat lavozimlarini egallagan, xususan: mingboshi (birinchi vazir), dasturxonchi (bosh xazinabon), risolachi (bosh kotib), sarkor (harbiy boshliq) va b. Boshqa nufuzli shaxslar shahar va ularning tumanlaridan ijara haqi olgan. Bu shaxslar unvonidan foydalanib o'zlari uchun daromad olish va o'zlariga berilgan yerlarni deyarli hech qanday cheklovlarsiz tasarruf etish huquqiga ega bo'lib, har yili ma'lum miqdorda pul mablag'larini davlat xazinasiga yuborish majburiyatini oladilar.” [12: 113-114-b.].

#### 4. Xulosa:

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, ijtimoiy stratalar (qatlamlar) ularning siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy – ma'naviy hayotdagi maqomlari va faoliyatlari bilan bog'liq. Aksar hollarda siyosiy hayot va hukumatga yaqin bo'lgan va kuchli ta'sirga ega guruhlarining vakillari iqtisodiy hayotda ham yetakchi bo'lgan. Xonlikdagi mol – mulk va yerga egalik ham ijtimoiy ierarxiyada yuqori darajada bo'lganlarning qo'lida ekani ham buni tasdiqlaydi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Агзамова Г.А. Города и городская жизнь Узбекистана в 16 – первой половине 19 веков. Автореферат докт. дисс. – Ташкент: ИИ Ан РУзб, 2000. – 50 с.
2. Турсунов Н. Из истории ремесленных цехов Средней Азии (на материалах ткацких промыслов Ходжента конца XIX- начала XXв.). Советская этнография. 1/1972. –С.110, 112).
3. Ремпель Л.И. Бухарские записи. Далекое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1981. – С. 81.

4. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 183; Сборник сведений о Средней Азии и русском Туркестане. Статьи неофициальной части «Туркестанских ведомостей» 1885 г. – Ташкент, 1885. – С. 84; Соловьева О.А. Символы, символические знаки и знаки власти (на среднеазиатском материале) // Символы и атрибуты власти: генезис, семантика, функции. – СПб., 1996. – С. 41-42.
5. Семенов А.А. (Сенатор). Изучение исторических сведений о Российской внешней торговле и промышленности. Со II половины XVII-го века по 1858 год. Части 1-3. – СПб, 1859.
6. Соловьева О.А. Символы, символические знаки и знаки власти (на среднеазиатском материале) // Символы и атрибуты власти: генезис, семантика, функции. – СПб, 1996. – С. 42.
7. Сухарева О.А. О ткацких ремеслах в Самарканде // История и этнография народов Средней Азии. – Душанбе, 1981. – С. 29.
8. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyo davlatlarida boshqaruv tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.– В. 80; Vohidov Sh., Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996. – В. 3-16.
9. Tursunov V. Qo‘qon xonligida harbiy ish va qo‘shin: holati, boshqaruvi, an‘analari (XIX asrning 70-yillarigacha). Monografiya. – Namangan., 2014. – В. 136.
10. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent, 1996. – В. 43.
11. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidagi unvon va mansablar. – Toshkent, 1996. – В. 6.
12. Вельяминов-Зернов В. Сведения о Кокандском ханстве // Туркестанские ведомости, № 508 (алохида нашри). – С. 113-114.



**Tadqiqot.uz**

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000